



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA  
XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI:  
MUAMMO, YECHIMLAR VA  
ISTIQBOLLAR**

**XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMAN**

**MATERIALLARI**

**Buxoro, 2022-yil, 29-mart**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**  
**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**  
**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ**  
**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

***БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО***  
***БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР***  
***ВА ИСТИҚБОЛЛАР***

*ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН*

***МАТЕРИАЛЛАРИ***

**2022 йил, 29 март**

**Илмий анжуманнинг дастурий қўмитаси**

- |               |   |  |
|---------------|---|--|
| О. Х.Хамидов  | – | Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис.              |
| О.С.Қаҳҳоров  | – | илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.                                |
| Ў.У. Рашидов  | – | молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо.  |
| Қ.Р.Тўхсонов  | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо.                                    |
| Ю.Ю.Азимов    | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.       |
| Н.О. Сафарова | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев   | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.  |
| Ю.А. Пўлотова | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб.                                   |

**Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси**

- |                |   |  |
|----------------|---|--|
| О.С.Қаҳҳоров   | – | Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.     |
| Қ.Р.Тўхсонов   | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини.                            |
| Г.Т. Зарипов   | – | ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо.   |
| Ю.Ю.Азимов     | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.       |
| Н.О. Сафарова  | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев    | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.  |
| Ф.М.Қосимов    | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.                                       |
| Ғ.М.Сайфуллаев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.                                       |
| Н.Б.Адизова    | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо.                              |
| Р.А.Қўлдошев   | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.                                    |
| Р.Х.Жумаев     | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.                                    |

Тўшам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда ҳалқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2022 йил 29 март куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида “Бошланғич таълимда ҳалқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

**Масъул муҳаррир:**

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

**Тақризчилар:**

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор

Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

poklik, diyonat sari intilishi muqarrar ekanligini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga yetkazish barobarida ularga iqtisodiy ish-harakat ma'nolarini anglatuvchi mashq matnlari sifatida "Qobusnoma"ning tegishli parchalaridan foydalanish uchun "Ona tili", "Tarbiya" va b.q. fanlarning integratsiyasini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir.

Auditoriya vaqtining chegaralanganligi munosabati bilan bu bebaho asarda o'quvchilarining iqtisodiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladigan iqtisodiy mazmun bilan yo'g'rilgan barcha parchalarni ular bilan birga tahlil qilishga imkoniyat bo'lmaydi.

Shu boiz mustaqil o'rganish va o'zlashtirish uchun ona tili, ona tili o'qitish metodikasi va b.q. fanlar o'qituvchilari bilan hamkorlikda mazkur asar bo'yicha qisqacha iqtisodiy lug'at ma'lumotnoma tuzish, iqtisodiy qadriyatlarimizni auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarida leksik, frazeologik jihatdan tahlil qilishga imkon beradigan materiallarni saralab olishga jalb qilish joizdir.

Ma'lumki bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishning muhim vazifalaridan biri, bu jamiyatimizning barcha a'zolarini kundalik faoliyatida amaliy hisob -kitob olib borishga va oqilona tadbirkorlikka o'rgatishdan iboratdir. Bu esa pedagogika kafedrasida o'qituvchisidan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida mazkur vazifalar sirasidan boshlang'ich sinf o'qituvchisining maktabdagi pedagogik faoliyatida turli fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish bo'yicha ishning mazmunini, shakl, metod va vositalarini aniq mavzu va savollar misolida izohlab berishni taqozo etadi.

Yuqorida bayon qilinginlardan ko'rinadiki, pedagogika tarixini o'rganish bo'lajak o'qituvchilarni zardushtiylik va islom dinining muqaddas kitoblari hamda hadislarda xalqimizni halol mehnat qilishga, poklikka, da'vatlari hamda xalk og'zaki ijodiyoti namunalari, buyuk ajdodlarimizning iqtisodiy ta'limotlari, g'oyalari, fiklari, shuningdek, rivojlangan davlatlarning iqtisodiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha erishgan yutuqlari hamda respublikamizda yosh avlodga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan ma'yoriy hujjatlari bilan qurollantirish, talabalarga boshlang'ich maktabda o'qitiladigan fanlar mazmuniga iqtisodiy ta'lim-tarbiyani singdirish orqali o'quvchilarni tarbiyalash imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис // М.: Прогресс, 2016. –55-63 с.
2. Юкина И.И. История женщин России: женское движение и феминизм в 1850 – 1920-е годы: материалы в библиографии. – СПб.: –Алетейя, 2013. – 234 с. (Гендерная коллекция).
3. Юсупова Ф.И. O'quvchilarning individual tayjergarligini amalga oshirishning pedagogik ta'limi. Ж. –Тошкент, 2015. № 5. –90 – 93 б.
4. Юдашина. Н.И. «Педагогика» 2011. -№8. –67-72 с. – Библиогр.: –72 с.  
<http://lib.sportedu.ru/>

### **BOSHLANG'ICH SINIF CHAPAQAY O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**R. A. Qo'ldoshev,**

*Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**S. U. Subhonova,**

*Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti*

*Annatsiya. Ushbu maqolada chapaqay bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ota-onalar, tarbiyachi va maktab o'qituvchilariga zarur tavsiyalar berilgan. Shuningdek, farzandingizni o'rganish va rivojlantirishga yordam beradigan bir nechta foydali maslahatlar ham kiritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *chapaqay, o'naqay, o'ng yarim shar, chap yarim shar, ambidekstr.*

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda o'qitishni sifat jihatdan jadal rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga etkazishning muhim omili sifatida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi. Jumladan, boshlang'ich sinflardan boshlab yozuv savodxonligini oshirish, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. «Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazish, ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish, bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun

ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur<sup>1</sup>». Bu borada boshlang'ich sinflarda chapaqay o'quvchilarni o'qitish jarayonini modernizatsiyalashning amaliyotdagi holatini tahlil qilish, chapaqay o'quvchilarni faollashtirish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchilari o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, usullari, metodlari va vositalarini aniqlashtirish hamda ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Yozuvga o'rgatishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalash, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftarlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Yozuvga o'rgatishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalash, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftarlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni ijobiy hal qilish esa zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda o'quvchilar saviyasiga mos tarzda berilgan nazariy va amaliy materiallarning uyg'unlashtirilishi, o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga mos holda uyushtirish, shuningdek, matn sifati, topshiriqlar xususiyati va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator shart-sharoitlarga bog'liq.

Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi. Chunki u har kuni turli-tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqozo etadi. Ammo qisqa muddat ichida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida chiroyli, tez va bexato yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

So'nggi paytda dunyoda chapaqaylar soni ortib bormoqda. Masalan, XX asr boshida ular aholining 4 %ini tashkil etgan bo'lsa, endilikda bu ko'rsatkich 15 %ni tashkil etmoqda. Statistika ma'lumotiga ko'ra, hozirda er yuzida 600 million chapaqay odam bor. Bu har 10-15 nafar kishining bittasi demakdir.

Yozuvga o'rgatish jarayonida harakatlarni bajarishda deyarli barcha holatlarda chap qo'ldan foydalanuvchilar chapaqaylardir.

Odam bosh miya yozishning rivojlanish jarayonida amallar chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taqsimlanadi. Chap yarim shar zimmasiga nutq, o'qish, yozish, hisoblash, tahliliy faoliyatning mantiqiy, matematik va boshqa murakkab operatsiyalari, o'ng yarim shar zimmasiga esa tashqi olamdagi narsalarning ko'rinishi, rangi va shu kabi yana ko'plab narsalarni aniqlash vazifasi yuklatiladi. Oyoq va qo'l harakatlari ikkala yarim shar o'rtasida taqsimlangan bo'lib, chap yarim shar ixtiyorida o'ng qo'l va oyoq, chap qo'l va oyoq o'ng yarim shar ixtiyorida bo'ladi.

Chapaqay o'quvchi yozishga biroz qiynaladi. Chapaqay bola biror bir matnni yozayotganda chap qo'l yozilayotgan yozuvni berkitib turadi va qayta-qayta yozganlariga qarayveradi. O'ng qo'lda yozadiganlar esa yozganlarini ko'rib turib, davom ettiraveradi va vaqtdan yutadi. Aslida, bu vaqtinchalik holat. Doimiy ravishda chap qo'l bilan yozish natijasida ba'zi chapaqay o'quvchilar o'ng qo'lda yozadiganlardan ham o'zib ketadi.

Ko'pchilik ota-onalar chapaqay bolalarini chiroyli yozishga o'rgata olmayotganliklaridan qiynaladilar. Chunki farzandlari oddiy bolalarday ruchkani ushlay olmaydi. Bu hol ularni asabiylashtiradi. Chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatish muammosi bugungi kunda turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bosh miya chap va o'ng yarim shardan iborat. Bosh miyaning chap yarim sharida nutq markazlari joylashgan. Shuning uchun bosh miyaning chap yarim sharida so'z bilan bog'liq barcha tafakkur g'oyalari amalga oshiriladi. Bosh miyaning o'ng yarim shari ob'ektlarning fazoviy joylashuvini tahlil qilish uchun javob beradi. Masalan, atrof-muhitdagi uylar, daraxtlar, mashinalar, haykallar va har qanday shaklga ega bo'lgan ob'ektlarning shakl-shamoyilini tahlil qiladi. Demak, bosh miyaning o'ng yarim shari dunyoni so'z ishtirokisiz qabul qiladi va bu erda, asosan, ko'rish analizatorining ahamiyati muhim hisoblanadi.

Chap yarim shar esa so'z bilan ifodalangan ma'lumotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi. Obrazli qilib aytganda, chap yarim shar, asosan, so'z bilan, o'ng yarim shar esa ko'z bilan dunyoni idrok etadi. Bu uyg'unlik saqlangan bo'lsa, insonning xotirasi mustahkam bo'ladi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

Kitobdagi siz ko'rayotgan geometrik shakllarni qabul qilib olish ham o'ng yarim sharning vazifasi. Biroq har qanday fazoviy jism yoki geometrik shakllarni so'z bilan ifodalab berish talab qilinsa, bu erda chap yarim shar yordamga keladi. Chap yarim sharning tili bor. Biroq hozir men keltirib o'tgan misollar o'naqaylar uchun xos.

Chapaqaylarda nutq markazlari bosh miyaning o'ng yarim sharida joylashgan bo'ladi. Chapaqaylarda chap yarim shar bajaradigan aksariyat funksiyalar o'ng yarim shar zimmasiga yuklatilgan. Bundan tashqari, *ambidekstrlar*, ya'ni oliy ruhiy funksiyalarni bajarishda miyaning ikkala yarim shari bir xilda ishtirok etadiganlar ham bor. Bundaylar ikkala qo'li bilan ham bir xil ishlay oladiganlar. Biroq bu degani ikkala qo'li bilan ham yoza oladi, degani emas. Masalan, ambidekstr yozganda, qalamni o'ng qo'lga oladi, nonni kesish uchun chap qo'li bilan pichoqni ushlaydi. "Toza" chapaqaylar 15%dan oshmaydi. Bizning oramizda ambidekstrlar va o'naqaylar ko'p. Ambidekstrlarda nutq funksiyasini bajarishda bosh miyaning ikkala yarim shari ham ishtirok etadi. Shu bois ambidekstrlarda insult sababli nutq buzilsa, u tez tiklanadi.

Chapaqaylar ko'proq amaliyotchi, o'naqaylar esa nazariyotchi bo'lishadi. Chunki miyaning chap yarim shari (ya'ni so'z markazlari joylashgan yarim shar) ustunlik qiladigan o'naqaylar narsa va voqealarni tahlil qilib o'tirguncha, miyaning o'ng yarim shari ustunlik qiladigan chapaqaylar (amaliyotni yaxshi ko'radigan o'ng yarim shar) ishni darrov amalga oshiradi-qo'yadi.

Fliders universiteti professori M. Nikolsning aytishicha, inson faqat genetik jihatdan chapaqay yoki aksincha bo'lib tug'ilishi mumkin. Biroq buni nuqson deyish mutlaqo noto'g'ri. Jismoniy imkoniyatlar teng bo'lganidek, har ikki toifadagi odamlarning aqliy qobiliyati ham teppa-teng[1].

Butunjahon chapaqaylar kunini nishonlash g'oyasi ilk marotaba 1990 yilda Britaniya Chapaqaylar klubi tomonidan berilgan.

1992 yilning 13 avgustida u ilk marta nishonlangan. Klub bu bayramda chapaqay o'quvchilarni maktablarda majburlab o'ng qo'lda yozishga o'rgatishga qarshi ekanliklarini namoyish qilib jamoatchilik e'tiborini tortishga harakat qiladi.

Har yili 13 avgustda norasmiy ravishda Xalqaro Chapaqaylar kuni (International Lefthanders Day) nishonlanadi.

Statistikaga ko'ra, chapaqay bolaning tug'ilish ehtimoli, agar ikkala ota-ona o'naqay bo'lsa, faqat 2%. Agar ota-onalardan biri chapaqay bo'lsa, ehtimollik 17% ga oshadi va agar ota-onalarning har ikkalalari chapaqay bo'lishsa, 46% hollarda chapaqay bolalar dunyoga keladi.

Yana bir maxsus guruh odamlar borki ularni **ambidekstr** deyiladi. Ular har ikkala qo'llari bilan ham bir xil - yaxshi ishlay olishadi. Ular miyasining har ikkala yarim shari teng ravishda rivojlangan. Ambidekstr ko'pincha tug'ma mahorat emas, balki ko'p yillik doimiy mashqlar natijasida yuzaga keladigan iste'dod. Bunga faqatgina tinimsiz mehnat orqali erishiladi. Yer yuzidagi odamlarning faqat 1%, albatta, ikkala qo'l bilan ham teng va to'laqonli faoliyat olib borib biladilar, xolos.

Ma'lumotlarga qaraganda, chapaqay bolalarning qo'pchiligi o'zining chap qo'lda yozishidan uyalar ekan. Bir muddat o'ng qo'lda yozishga harakat qilib, uddalay olmagach, yana chap qo'lda yozishni boshlar ekan.

Ma'lumki, shu paytga qadar chapaqay insonlarning aksariyati noyob iste'dodga ega bo'lishadi, degan aqida mavjud. Ba'zi olimlarning xulosalariga ko'ra, chap qo'lda ishlaydiganlar boshqalardan deyarli farqi yo'q ekan.

Chapaqay bolalar yozishga biroz qiynaladi. Chunki biror - bir matnni yozayotganda chap qo'l yozilayotgan yozuvni berkitib turadi. Ular qayta-qayta yozganlariga qarayveradi. O'ng qo'lda yozadiganlar esa yozganlarini ko'rib turib davom ettiraveradi va vaqtdan yutadi. Aslini olganda, bu vaqtinchalik holat. Doimiy ravishda chap qo'l bilan yozish natijasida ba'zi chapaqay o'quvchilarnilar o'ng qo'lda yozadiganlardan ham o'zib ketadi.

Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, katta yoshdagi insonlar orasida chapaqaylar kamchilikni tashkil etardi. Olimlar buni inson yoshining o'sishi bilan izohlaydi. AQShda 20 yoshlilarning 12%, 50 yoshlilar orasida 5%, 80 yoshlilar orasida esa bor-yo'g'i 1%ni chapaqaylar tashkil etar ekan. Buning sabablari hozirga qadar sir bo'lib qolmoqda.

Dunyodagi 85% odam o'naqay. Shu bois asosiy predmet va turli xildagi narsalar ular uchun ishlab chiqarilgan. Agar oilada chapaqay farzand dunyoga kelsa, unga ozgina boshqacha munosabatda bo'lishga to'g'ri keladi. Eng asosiysi - chapaqaylik organizmning kamchiligi emas, balki o'ziga xos xususiyat deb tushunish kerak. Shu bois, bolani kichkinaligidan chapaqaylikni bartaraf etishga, faqat o'ng qo'ldan foydalanishga majburlamaslik kerak. Aks holda bolaning psixik holatida o'zgarish bo'lib, o'qishga nisbatan salbiy holat kuzatilishi mumkin.

**Adabiyotlar**

1. Kraus E. Proposal of a differentiation system "handedness type with variants" for the analysis of changing hand use // between left and right handedness. - Springer, Berlin, Heidelberg, 2019. - С. 157-191.
2. Avezmurodovich O. R. Difficulties in learning to write and read left-handed children //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), 40. – 2020. – Т. 45.
3. Қўлдошев Р. А. Бошланғич синф чапақай ўқувчиларини ёзувга ўргатишнинг методик асослари. Пед. фан. фал. док... дисс. – Бухоро, 2021. – 146 б.
4. Azimov Y. Y., Qo'ldoshev R. A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qollanma). GlobeEdit, 2020.-141bet.

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ТАБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК ТАЛАБЛАРИ**

**М. М. Джумаева, ТермезДУ ҳузуридаги ТермезДПИ ўқитувчиси**

**Аннотатсия.** Ўқувчиларнинг табиат тўғрисидаги илмий дунёқарашларини шакллантириш, тафаккурини ривожлантиришда табиат қонунларини асослаб табиийёт ва география ўқитилишида миллий ўқув дастури дидактик талаблари ўқитишда илмий ва амалий билимлар мажмуасини ёритиш табиий ва иқтисодий фанлар блок-модулининг асосий вазифасини белгилаб беради.

**Калит сўзлар.** География, ўқитиш, таълим ва тарбия, кимё, биология, табиат, миллий ўқув дастури.

**Аннотатсия.** Основной задачей блок-модуля естественных и экономических наук является формирование научного взгляда на природу, развитие мышления учащихся.

**Ключевые слова.** География, преподавание, образование, химия, биология, природа, национальная учебная программа.

Lecturer at Termez State Pedagogical Institute at Termez State University

**Annotation.** The main task of the block module of natural and economic sciences is the formation of a scientific view of nature, the development of students' thinking.

**Key words.** Geography, teaching, education, chemistry, biology, nature, national curriculum.

Ёшларнинг билим ва иқтидорини чуқурлаштириш, уларнинг келгусида малакали кадрлар бўлиб Ўзбекистонни янада ривожлантиришдаги иштирокини таъминлаш мақсадида таълим жараёнига замонавий ёндашувлар жорий этилмоқда, шунга жавобан тадқиқот ишимизни самарали ва амалиётга жорий этишда натижавийликка этиборни қаратмиз. [1]

География таълимининг ўқитилиши замонавий таълим технологияларига асосланган ҳолада ўқувчиларда ҳозирги замон талаблари, таълим соҳасидаги жаҳон андозалари ва миллий ривожланиш манфаатларига мос келадиган географик маданиятни, яъни географик дунёқараш, тафаккур ва билимлар, уларни ҳаётий ва касбий амалиётда қўллай олиш кўникма ва малакаларини (компетентликни) шакллантириш;

ўқувчиларда Ер сайёраси ва унинг ҳудудий қисмлари ҳақида яхлит билимларни шакллантириш, табиий, ижтимоий-иқтисодий ҳамда экологик ҳодиса ва жараёнларни тушуниш учун илмий-методологик замин яратиш, табиатдан оқилона фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш борасида ҳаётий кўникмаларини шакллантириш, уларни тахлилий фикрлашга ўргатиш, олган назарий билимлари асосида амалий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган халқаро баҳолаш дастури (PISA, TIMSS) талабларига мос келадиган топшириқлар билан ишлашини ривожлантиришдан иборат.

**География таълимининг вазифалари:**

Ер сайёраси ва унинг алоҳида ҳудудлари, жумладан Ватанимиз

Ўзбекистоннинг табиати, аҳолиси ва ҳўжалиги ҳақидаги тизимли билимларни ҳосил қилиш; табиий ва ижтимоий-иқтисодий жараёнларни кузатиш ва таҳлил қилиш кўникмаларини ҳосил қилиш;

жамият ва табиат ўртасидаги ўзаро муносабатларининг моҳияти ва хусусиятлари, сабаб-оқибатларини тушунтириш ва ййечиш йўллари тўғрисида тушунча ҳосил қилиш, ёш авлоднинг экологик маданиятини, миллий бойликларга нисбатан эҳтиёткорлик ва тежамкорлик муносабатини ўстириш;

турли ахборот манбаларидан фойдаланган ҳолда, табиий ҳамда ижтимоий- иқтисодий объект ва ходисаларни тавсифлаш, географик хариталар ва статистик маълумотлар билан

G.E.Saidova, A.Sh.Qoryog'diyeva. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIVYALASH.....	208
O.R.Ortiqov. MA'NAVIIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY ILDIZLARI.....	209
G.E.Saidova, S.F.Sanoqulova. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	214
Z. Sh. Nurmamatov, TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI MODELINI RIVOJLANTIRISH.....	215
J. X. Xayitov. AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI YOSH TALABALARNING IJODIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	216
Adizova Nodira. TOPONIMLARNING LISONIY-ETIMOLOGIK TASNIFI.....	218
D.N.Xayrullayeva. 1-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA ETNOPELAGOGIKA NAMUNALARINI O'RGATISH METODIKASI.....	219
A.Sh. Husenova. BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI.....	221
U.Tog'ayeva. LOYIHAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	223
C.A.Kodirova . BOŞLANGIÇ SINFLARDA MASAL JANRINI ŐRGANIŞDA "ZARBUŁMASAL" NING ŐRNI VA AĖAMIYATI.....	225
Ядгарова Гульбахор. ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ŐҚИТУВЧИ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТИГИНИНГ АĖAMIYATI.....	226
M.M.Tilavova, N. B. Hojiyeva. TEXNOLOGIYA FANIGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI.....	228
M.M.Tilavova, M. Alimova. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA XORIJ TA'LIM TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	230
C.И.Холматова. БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЈАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИНГ АĖAMIYATI.....	232
K. S. Temirova. SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARDA NUTQUIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	233
S.Muhiddinova. BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA SALOMATLIK MUHITINI YARATISH.....	235
A. Hamroyev, M. Ne'matova. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	238
N.B.Adizova, N.B. Rajabova. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BADIY ADABIYOTNI NIKOYA QILIB BERISHGA O'RGATISHDA MAXSUS USULLARDAN FOYDALANISH.....	240
Yulduz PO'LOTOVA, Shahnaz HAMROQULOVA. O'ZBEK ALIFBE DARSLIKLARINING YARATILISHIGA ASOS BO'LGAN PEDAGOGIK OMILLAR.....	242
N.X.Aslanova. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BADIY VA MA'LUMOTLI MATNLAR USTIDA ISHLASHGA O'RGATISHDA INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	244
Y. U. Nurova. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MASHG'ULOTLAR DAVOMIDA OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISH TEXNALOGIYASI.....	247
M. X. Эшонкулова. ОСНОВЫ КОНСТРУКТИВНОГО ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОГО И ДОШКОЛЬНЫХ ГРУППАХ.....	249
Y. Po'lotova, Sayyora Karimova. BOSHLANG'ICH SINIFDA ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI.....	252
Y. Po'lotova. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA AXBOROT-RESURSLARNING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH-METODIK MUAMMO SIFATIDA.....	253
Zarina Homitova, M. Ro'ziyeva. BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	257
X.M.To'rayeva. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI FAOLLASHTIRISHDA EVRISTIK METODLARNING IMKONIYATLARI.....	259
Umedjonova Lobar, M. Ro'ziyeva. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	260
Ашурова Мархабо. АЛЛОМАЛАР АСАРЛАРИДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ.....	261



Холиқов Умиджон. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАР ШАХМАТ ЎРГАНИШ ОРҚАЛИ МАНТИҚИЙ ФИКЛАШ ҲАМ ИРОДАНИ ШАКЛАНТИРАДИ.....	263
Ш.Н. Қодиров. ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР ОРҚАЛИ ЁШ АВЛОДНИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ .....	266
М.Н.Накимова, М.Ш.Намидова. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TENGLAMALARTUZISH USULI BILAN MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH .....	267
Qayimov Laziz. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMAALARINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI .....	269
Qayimov Laziz. O'QUVCHILARINI MAKTABDA IQTISODIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHGA PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI .....	272
R. A. Qo'ldoshev, S. U. Subhonova. BOSHLANG'ICH SINFI SHARAQAY O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	274
М. М. Джумаева. БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ТАБИИЙ ФАҒЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК ТАЛАБЛАРИ .....	277